

## YARIM O`TKAZGICHLARNING YUPQA PARDALARI VA ULARNING ELEKTROFIZIK XOSSALARI

**Turg`unboyev R.T.**

*Farg'ona davlat universiteti, FarDU 1-kurs*

*Fizika (Nazariy fizika) magistranti*

*E-mail: rasuljonturgunboyev3@gmail.com*

*Tel: +998990669808*

**Turg`unboyeva M.S.**

*Toshkent kimyo-texnologiyalar universiteti*

*1-kurs magistranti*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada yupqa parda yarimo`tkazgich asboblarini yaratishda termoelementlarni olishda kirishmalarning samaradorligi va termo e.yu.k. va elektr o`tkazuvchanligi o`lchashning asoslari,yarimo`tkazgich yupqa parda termoelektrik energiya o`zgartirgichlarning issiq va elektr xarakteristikasi, yarimo`tkazgich yupqa parda termoelement tayyorlash texnologiyasi va usuli, olingan yupqa parda termoelement namunalardagi o`lchash natijalari, grafik, sxemalar va xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** yarim o'tkazgichlar, yupqa qatlamlar, effektiv uzunlik, rekombinatsiya, sirtiy rekombinatsiya tezligi, qo'shqutbiy diffuziya koefitsiyenti, lazer ligerlash.

### **Аннотация**

В данной статье эффективность входов и термо э.ю.к.в получении термопар при создании тонкопленочных полупроводниковых приборов и основы измерения электропроводности, тепловые и электрические характеристики полупроводниковых тонкопленочных термоэлектрических преобразователей энергии, Технология и способ изготовления полупроводниковых тонкопленочных термопар, приведены результаты измерений на полученных образцах тонкопленочных термопар, графики, схемы и выводы.

**Ключевые слова:** полупроводники, тонкие слои, эффективная длина, рекомбинация, скорость поверхностной рекомбинации, коэффициент кроссполярной диффузии, лазерное лигировани.

### **Annotation**

In this article, the effectiveness of inputs and thermo e.yu.k. in obtaining thermocouples in the creation of thin film semiconductor devices and basics of electrical conductivity measurement, thermal and electrical characteristics of semiconductor thin film thermoelectric energy converters, the results of measurements

on the obtained thin film thermocouple samples, graphs, schemes and conclusions are described.

**Key words:** semiconductors, thin layers, effective length, recombination, surface recombination rate, cross-polar diffusion coefficient, laser ligation

## KIRISH

Fan va texnikada qo'llaniladigan yarim o'tkazgich moddalar namunalari ancha yupqa qatlamlardan iborat bo'ladi. bunda sirtning tasiri va boshqa omillar muhim ahamiyatga egadir. Namuna yetarlicha yupqa bo'lganida amalda foydalilaniladigan yoki o'rganiladigan eletkronlar va kovaklar ishtirokidagi jarayonlar butunlay yarim o'tkazgichning sirtqi qatlamida sodir bo`lib, ularning hajmiy tashkil etuvchisini deyarli nazarga olmasa ham bo'ladi. shunday holda namuna o'lchami faqat bir yo`nalishdagina kichik bo'ladi deb hisoblancha (amalda shunday bo'ladi ham), hisoblash masalalari ancha soddalashadi.

O'rganiladigan yarim o'tkazgich modda sirtiga o'tkaziladigan yoki dielektrik qatlamlari ham yarim o'tkazgichning sirtiy qatlami xossalarni o`zgartirishi mumkin.

### **Yarim o'tkazgichlarning yupqa pardalari va ularning elektrofizik xossalari**

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan asboblar va tuzilmalarda qalinligidan bo`ylama o'lchamlari ancha katta yupqa qatlamlar va kontaktlar keng miqyosda qo'llanilmoqda. Bu aytilganlar yarim o'tkazgichlarning yupqa qatlamlarida va ko`p qatlamlili tuzilmalarda yuz beradigan jarayonlarni o'rganish muammolarini yarim o'tkazgichlar fizikasining maxsus bo`limi sifatida qarab chiqishni taqozo qiladi.

Yarimo'tkazgich qatlaming qalin yoki yupqa deb hisoblanishini aniqlab beradigan muayyan maxsus o'lchamlar (uzunliklar) kiritiladi, ulardan eng muhimlari qukyidagi to`rtta uzunlidir:

- 1) nomuvozanatiy zaryad tashuvchilar diffuziya uzunligi  $L_0$ ;
- 2) ekranlashning effektiv uzunligi  $L_{de}$ ;
- 3) elektron yoki kovakning erkin yugirish uzunligi  $l_{nlp}$ ;
- 4) kristallda elektron yoki kovak to`lqini uzunligi  $\lambda_{nlp}$ .

Masalan, xona haroratsida germaniy yoki kremniy kabi yarim o'tkazgichlar uchun quyidagi tengsizliklar o'rnlidir:

$$L_0 \gg L_{de} \geq l_{nlp} \gg \lambda_{nlp} \quad (1)$$

Agar yarim o'tkazgich qatlaming kengligi d diffuziya uzunligi  $L_0$  bilan taqqoslanarli bo`lsa ( $d \sim L_0$ ), u holda qatlamning hajmidagi rekombinatsiya bilan bir vaqtida uning sirtidagi rekomdinatsiyani etiborga olish zarur.

$d \ll L_0$  bo`lgan hollarda nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarning effektiv yashash vaqtি  $\tau_{eff}$  va effektiv diffuziya uzunligi  $L_{eff}$  mana bunday ko`rinishda bo'ladi:

$$\frac{1}{\tau_{eff}} = \frac{1}{\tau_0} + \frac{2s}{d} \quad (2)$$

$$\frac{1}{L_{\text{eff}}^2} = \frac{1}{L_0^2} + \frac{2s}{Dd} \quad (3)$$

bundagi s – sirtiy rekombinatsiya tezligi, D – qo`shqutbiy diffuziya koeffitsiyenti.

Baholashlar ko`rsatishicha, millimetr chmasidagi qalinlikli ancha namunalar uchun (2) va (3) ifodalar o`ng tomonidagi birinchi va ikkinchi hadlar qiymatlari bir-biriga yaqin, demak, rekombinatsiyaga nisbatan, santimetrik qalinliklari namunalari qalin deb, yuzlarcha yoki o`nlarcha mikrometr chamasidagi namunalarni yupqa deb hisoblasa bo`ladi.

Agar  $d \sim L_{de}$  bo`lsa, yani qatlam qalinligi ekranlash effektiv uzunligi tartibida bo`lsa, yarim o`tkazgich pardasidagi (yupqa qatlamidagi) zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi qalin qatlamdagi muvozanatiy kontsentratsiyadan farq qiladi. Bu holda hatto yupqa qatlamdagi o`tkazuvchanlik tipi qalin qatlamdaginikiga qaramaqarshi bo`lishi mumkin.

Qatlamning qalinligi zaryad tashuvchilar erkin yugurish uzunligiga taqqoslanarli ( $d \sim L_{nlp}$ ) bo`lgan holda sirtda zaryad tashuvchilar sochilishi hajmdagi bilan taqqoslanarli bo`lib qoladi. Kremniy va germaniy uchun xona haroratsida, kirishmalar uncha ko`p bo`lmaganda  $l_{nlp} \sim 10^{-5} - 10^{-6}$  sm. Qatlamning bunday d qalinligini pardada zaryad tashuvchilar sochilishiga nisbatan chegaraviy deb hisoblash mumkin. Agar qatlam qalinligi de-Broyl to`lqin uzunligi chamasida ( $d \sim L_{nlp}$ ) bo`lsa, bu holda kvant o`lchamlik effekt paydo bo`ladi. Kremniy kristalida  $l_{nlp} \sim 100 - 200$  Å. Ammo bunday qalinlikdagi yetarlicha mukammal qatlamlar hosil qilish qiyin masaladir.

Yarimo`tkazgichning yupqa qatlamlarini olishning bir necha usullari mavjud. Ancha ko`p qo`llaniladigan usullar gaz oqimi yordamida yoki suyuq fazadan qatlamlar o`tkazish (epitaksiya) usullaridir. Endi yupqa yarimo`tkazgich qatlamlariga tegishli hodisalar haqida bazi malumotni keltiramiz. Masalan, n tipdagi (elektronlar konsentratsiyasi  $N_0 \gg P_0$ ) yarimo`tkazgich W qalinlikdagi sirt qatlamining elektrik sig`imi S odatdagi  $C_\omega = \zeta_0 \zeta_s / W$  ifodadan farq qiladi:

$$I_{ps} = e\mu_{ps} E_s p_s - eD_{ps} \frac{dp_s}{dx} \quad (5)$$

bundagi Es-sirtqi qatlamdagi elektr maydon kuchlanganligi,  $\mu_{ps}$ , Dps-shu qatlamda harakatlanayotgan kovaklar harakatchanligi, diffuziya koeffitsiyenti.

$$I_v I_n + I_p = E_v \sigma_v e (D_n + D_p) \frac{d\Delta P}{dx} \quad (6)$$

Bu ifodadagi kattaliklar hajmga tegishlidir.

Yarimo`tkazgichlarda hamma vaqt elektronlar uchun taqiqlangan zonada chuqur sathlar hosil qiladigan kirishmalar yoki nuqsonlar mavjud bo`ladi.

Agar chuqur sathlar konsentratsiyasi legirlovchi kirishma konsentratsiyasidan ancha kichik bo`lsa, ulardagi zaryadni hisobga olmaslik mumkin, ular rekombinatsiya

markazlari xizmatini bajarib, nomuvozanatiy zaryad tashuvchilarning yashash vaqtini aniqlaydi.

Agar yuqoridagining aksi bo`lib, u holda hajmiy yopishish hodisasi vujudga keladi: nomuvozanatiy holatda chuqur sathlarda elektronlar konsentratsiyasi, ulardagi zaryad muhim darajada o`zgaradi. Bunday yarimo`tkazgichlarning hajmiy zaryad sohasida yuz beradigan nomuvozanatiy jarayonlar yana ham murakkab bo`ladi. hajmiy yopishish hodisasi yuz berganda sirtiy rekombinatsiya tezligi ham boshqacha bo`ladi, umuman aytganda, sirtiy qatlamdagi jarayonlar chuqur sathlar borligida boshqacha kechadi: yupqa qatlamlardagi potensial taqsimoti qalin qatlamdagidan murakkabroq, rekombinatsion jarayonlar ham birmuncha o`zgacha yuz beradi.

Lazer legirlashning beshta usuli bor:

- 1.Namuna sirtini lazer qizdirish tasirida gaz fazadan legirlash.
- 2.Fotoliz lazer legirlash ham gaz fazadan amalga oshiriladi.
- 3.Implatatsion lazer legirlashda ham gaz fazadan amalga oshiriladi.

4.Kontakt qatlamda lazer legirlash usuli qo`llanganda yarim o`tkazgich sirtiga, maxsus ravishda, modda o`tkaziladi, uning atomlari keyin lazer qizdirganda yarim o`tkazgich ichiga muayyan chuqurlikkacha kiradi.

5.Kirishmalarni lazer yordamida kiritishda kontakt sohasi suyultiriladi, keyin diffuziya va implantatsiya amalga oshadi. Shu usul bilan olingan p-n tuzilmalarda to`g`ri tokning teskari tokka nisbatan fotosezgirlikning spektral xaraktristikasi boshqa legirlash usullaridan lazer yordamida kirishmalar kiritish usulining ustunligini ko`rsatadi.

### **Yarimo`tkazgichlarning elektr xossalari**

**1 jadval.**

| Xossasi   | Kremniy          | Germaniy     | Galliy arsenidi  | Galliy fosfidi    |
|---|------------------|--------------|------------------|-------------------|
| Ta'qiqlangan zona kengligi, eV da<br>0 K da .....   | 1.21             | 0,756        | 1,52             | 2,34              |
| 300 K da .....  | 1,10             | 0,66         | 1,43             | 2,26              |
| Ta'qiqlangan zona kengligining<br>koeffitsiyenti, $10^{-4}$ ,<br>eV/K.....  | -4,1             | 4,4          | -5,0             | -3,67             |
| Xususiy solishtirma qarshiligi, Om-<br>sm 300 Kda.....  | $2,5 \cdot 10^5$ | 47           | $3,7 \cdot 10^8$ | $2 \cdot 10^{16}$ |
| Kirishmasiz yarimo`tkazgich<br>zaryad tashuvchilarning<br>harakatchanligi, $\text{sm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$ , 300 Kda:<br>Eletkronlar..... |                  |              |                  |                   |
| Kovaklar.....   |                  |              |                  |                   |
| Zaryad tashuvchilarning xususiy<br>kontsentratsiyasi, $\text{sm}^{-3}$ , 300<br>Kda.....  | 1450<br>480      | 3900<br>1900 | 10500<br>425     | 300<br>100        |
| Kirishmasiz yarimo`tkaz-gichda<br>zaryad tashuvchilar   |                  |              |                  |                   |

|   |           |                   |                   |        |        |
|---|-----------|-------------------|-------------------|--------|--------|
| harakatchanligining<br>bog`liqligi, sm <sup>2</sup> /V·s: | haroratga | $1,45 \cdot 10^2$ | $2 \cdot 10^{13}$ | $10^7$ | $10^5$ |
| Eletkronlar.....  |           |                   |                   |        |        |
| Kovaklar.....   |           |                   |                   |        |        |

### **Yarimo`tkazgichlarda keng tarqalgan kirishmalarining elektr tabiatи**

| Yarimo`t kazgich    | Neytral kirishma                       | Donorlar                 | Akseptorlar              | Chuqr sath hosil qiluvchi kirishmalar                   |
|---------------------|--|--------------------------|--------------------------|---|
| Kremniy<br>Germaniy | H,N,C,Ge,Sn,Pb,Ar<br>H,N,C,Ge,Sn,Pb,Ar | P,As,Sb,Li<br>P,As,Sb,Li | B,Al,Ga,In<br>B,Al,Ga,In | Cu,Au,Zn,Mn,Fe,S,Ni<br>Cu,Ag,Au,Zn,Cd,Mn,Ni,Fe,S,Se ,Te |
| Galliy<br>arsenidi  | H,N,B,Al,In,P,Sb                       | Si,Sn,Te,S,<br>Se        | Zn,Cd,Be,Li              | Cr,Fe,V,Ni,Mg,Au,Ge,Mn,Ag                               |
| Galliy<br>fosfidi   | H,N,B,Al,In,As,Sb                      | Si,Sn,Te,S,<br>Se        | Be,Mg,Zn,Cd,<br>C        | Cu,O,Ge,Co,Fe,Cr,Mn                                     |

### **XULOSA**

Fan-texnikani rivojlanishi XXI asr boshlaridanoq moddalarni yoki kristal jismlarni yoki yarimo`tkazgich materiallardan yupqa pardali termoelementlarni olish va o`lchash, aniqlash, ular to`g`risida fizik tavsifnomalar berish, bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Yupqa yarimo`tkazgich moddalar materiallarini tavsifnomalarini olishda ularni  $\alpha$ -termo e.yu.k.,  $\sigma$ -elektr o`tkazuvchanlik va Z – termoelektr samaralar o`lchash ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yupqa parda yarimo`tkazgich asboblarini yaratishda termoelementlarni olishda kirishmalarining samaradorligi va termo e.yu.k. va elektr o`tkazuvchanligi o`lchashning asoslari bayoni keltirilib, bunda:

a) parametrlarning  $\alpha$ -termo e.yu.k. aniqlash usuli;

b) yarimo`tkazgich yupqa pardali termoelementlarni kinetik o`lchashda legirlash usullari va qisqacha xulosalarini bayon etildi.

c) yarimo`tkazgich yupqa parda termoelektrik energiya o`zgartirgichlarning issiq va elektr xarakteristikasini tekshirish;

d) yarimo`tkazgich yupqa parda termoelement tayyorlash texnologiyasi va usuli;

Olingan yupqa parda termoelement namunalardagi o`lchash natijalari, grafik, sxemalar va xulosalar bayon etilgan.

**Adabiyotlar:**

1. Ioffe A.F. Poluprovodnikovyetermoelementy. / M.-L.: Izd-vo AN SSSR, 1960.
2. T.M. Azimov, GaynazarovaK.I., Onarkulov M.K., A. A. Yuldashev. Thermoelectric and Galvanomagnetic Properties of the Alloy Bi<sub>2</sub>Te<sub>3</sub> + 0.04 Weight% Ni in the Temperature Range 77 ÷ 300K / American Journal of Modern Physics. 2021. p. 124-128.
3. Huang B.et al. Low-temperature characterization and micropatterning of coevaporated Bi<sub>2</sub>Te<sub>3</sub> and Sb<sub>2</sub>Te<sub>3</sub> films. //Journal of Applied Physics. 2008. Vol. 104. № 11. Pp. 113710-113715.
4. Voronin A. I. et al. Structure of Profiled Crystals Based on Solid Solutions of Bi<sub>2</sub>Te<sub>3</sub> and Their X-Ray Diagnostics. // Journal of electronic materials. 2011. Vol. 40. №. 5. Pp. 794-800.